

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14559698>

BOSHLANG‘ICH SINFDA SIFAT SO‘Z TURKUMI BO‘YICHA LISONIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Abinova (Bekbulatova) Jibek Janbolat qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 404 q guruh talabasi.

Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich (Ilmiy rahbar)

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida sifat so‘z turkumi bo‘yicha lisoniy komptensiyalarni shakllantirish uchun qo‘llaniladigan usullar haqida ilmiy-nazariy ma’lumotlar beilradi va ushbu metodikalar tahliliga tortilgan.

Kalit so‘zar: lingvistika, kompetensiya, ta’lim modeli, malaka, amaliy kompetentlik, kasbiy kompetentlik, sifat so‘z turkumi, lisoniy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ vaziyat, lisoniy ekspressivlik vositalar, grammatik shakl.

АННОТАЦИЯ

В данной статье даны научно-теоретические сведения о методах, применяемых на уроках родного языка в начальных классах для формирования языковых композиций по качественному словарному разряду, и эти методики подвергнуты анализу.

Ключевые слова: лингвистика, компетентность, образовательная модель, компетентность, практическая компетентность, профессиональная компетентность, качественный словарный запас, языковая компетентность, компетентностный подход, коммуникативная ситуация, языковая выразительность средства, грамматическая форма.

ABSTRACT

In this article, scientific-theoretical information about the methods used to form linguistic competencies in the qualitative word category in elementary-grade native language lessons is beilradi, and these methodologies are subject to analysis.

Keywords: linguistics, competence, educational model, competence, practical competence, professional competence, qualitative vocabulary, linguistic competence, competency approach, communicative situation, linguistic expressiveness tools, grammatical form.

Jahonda o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim mazmunini fan yutuqlari bilan uyg‘unlashtirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlandi va ushbu konsepsiya tegishli davrga mo‘ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida tasdiqlanadigan «Yo‘l xarita»si orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi¹. Shu bilan bir qatorda yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi. Umumiy o‘rta ta’limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari, fan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me’yoriy asoslari yaratildi².

Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisi. U bilim mahsuli bo‘lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo‘lmaydi³. Lisoniy kompetensiya – til sistemasi haqidagi bilimga, lisoniy tafakkurga, yangi til vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarini mustaqil

¹ <https://kun.uz/news/2019/04/30/ozbekiston-respublikasi-xalq-talimi-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiysi-tasdiqlandi-prezident-farmoni>

² Qorayev S.B. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning asosiy jihatlari. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | ISSUE 1| 2022. – B. 1071-1078.

³ Qorayev S.B. Ko‘rsatilgan manba. O’sha bet.

qo'llash tajribasiga ega bo'lgan o'quvchining shaxsiy xislatlari tushuniladi. Lisoniy kompetensiya o'quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya singari bo'limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka-ko'nikmasidir.

Boshlangich ta'limda Ona tilini o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv bu o'qituvchi shaxsining boshlangich sinf o'quvchilarini til haqidagi bilimlarini oshirish bilan birgalikda, muammoli vaziyatlarda bu bilimlardan o'rinni va maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish qobiliyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishdan iboratdir. Shuning uchun ham boshlangich ta'im o'qituvchisining Ona tili darsini o'qitishdagi bosh vazifasi faqat bilimga ega bolalarni tarbiyalash bilan cheklanmay, balki bu bilimlarga ega bo'lish bilan birgalikda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarda o'rinni foydalana oladigan, malaka va ko'nikmasi rivojlangan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Demak, ta'limning barcha turlarida, xususan, tilga oid ta'limda kompetensiyaviylikni rivojlantirishga e'tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi¹.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, hozirgi kunda davlatimizdagi mavjud ta'lim tizimi an'anaviy bilimga asoslangan ta'lim modelidan kompetensiyaga asoslangan modelga o'tishga harakat qilmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri boshlang'ich sinflar «Ona tili» darsliklarida fan o'qituvchilari uchun yaratilgan metodik qo'llanma yoki majmualarda aynan o'quvchilarda lisoniy tahlil ko'nikmasini hosil qilish, yoki lisoniy tahlilga o'rgatish masalalariga doir tushuncha yohud biror yo'nalish berib o'tilmagan. Ammo rus ta'lim tizimida izlanish olib borgan olimlarning izlanishlarini o'rgansak, bunga qaysidir ma'noda e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin.²

Bugungi zamонавиј мактаб oldida turgan muhim vazifalardan biri bu – Davlat tilini yuksak saviyada biladigan savodxon shaxsni tarbiyalashdek ulkan vazifa turibdi.

¹ Irisboyeva X.U. Matnlar tahlili asosida o'quvchilarda lisoniy kompetensiyani shakllantirish. American journal of social science ISSN: 2996-5306 (online) | ResearchBib (IF) = 9.674 Impact factor Volume-2 | Issue-4 | 2024 Published: |30-11-2024| 49-54 bet

² Быстрова Е.А. Цели обучения русскому языку, или какую компетенцию мы формируем на уроках// Обучение русскому языку в школе учеб. Пособие для студентов педагогических вузов Е.А.Быстрова, С.И.Лывова, В.И.Капинос, – М. Дрофа, 2004. – С. 20–39.

Aynan boshlang‘ich ta’limda savodxonlik poydevori qo‘yiladi. Chunki bu davrda nutq faoliyatining barcha turlari (yozish, o‘qish, gapirish va tinhlash) bo‘yicha intensiv mashg‘ulotlar olib boriladi¹.

Boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarida sifat so‘z turkumi bo‘yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini kompetensiyaga asoslangan yondashuvni hisobga olgan holda tashkil qilish lozim va yana shuni yodda tutish kerakki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining til bilimlarini o‘zlashtirishi bir-biridan farqli bo‘laklar shaklida emas, balki integral tizimni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich ta’limning o‘zidayoq o‘quvchilarda til tizimining darajalari (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik), uning ichki aloqalari, amal qilish xususiyatlari haqida ilmiy tushunchalarni shakllantirish borish zarur. Yangi til birligining har tomonlama o‘rganilishi, uning til tizimidagi vazifasi, kommunikativ vaziyatda qo‘llanishi orqali asoslanishi muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sifat so‘z turkumi bo‘yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirishda sifatning tevarak-atrofdagi voqelikni tasvirlashda lisoniy ekspressivlik vositalaridan biri ekanligi, grammatik shakllarning boyligi bilan ajralib turishini inobatga olish lozim. Har qanday gapni nutqning ushbu qismidagi so‘zlarsiz tasavvur qilish dargumon. Sifatlardan foydalanish kichik yoshdagи o‘quvchilar uchun qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Bu ba’zi birliklarning katta semantik salohiyati, o‘quvchilarning sifatlarning qisqa shakllarini, taqqoslash darajalari shakllarini ustuvor rivojlantira olmasligi bilan bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lisoniy kompetensiyani shakllantirishda ahamiyat berish lozim bo‘lgan jihatlar mavjud bo‘lib, ayni shular sababli kichik yoshdagи o‘quvchilarda lisnoiy kompetensiyani shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- sifat so‘z turkumi haqidagi bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish;

¹Дубова М.В. Дидактические принципы компетентностно ориентированного обучения в начальном общем образовании // Начальное образование. 2012. – №1. – С. 50–51.

- sifatdosh nomini gap bo‘lagi sifatida tahlil qilish amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- me’yoriy jihatni hisobga olgan holda nutqda sifatdosh qo‘llash malakalarini rivojlantirish.

Yuqoridagilardan tashqari boshlang‘ich sinf “Ona tili” darslari jarayonida muammoli-ijodiy hamda tadqiqot xarakteridagi turli usul va metodlarga murojaat qilish ham foydadan holi emas. Bunda, albatta, maqsadli va tizimli foydalanish o‘rinli kechadi. Sifat nomi to‘g‘risidagi lingvistik ma’lumotlarni o‘zlashtirish matn bilan ishslashda funksional va kommunikativ yo‘nalishni hisobga olgan holda samarali amalga oshiriladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy bilimlami shakllantirish orqali erkin shaxsni tarbiyalash, bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, bilimlami egallash va amalda qo‘llash, qabul qilinadigan qarorlami tezkor va puxta o‘ylab chiqish hamda harakatlarni aniq rejalashtirish, turli hil guruhlarda samarali hamkorlik qilish, yangi aloqalarga ochiq borishga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Bu ta’lim jarayoniga bilim olish faoliyati bilan birga kompetensiyaviy ko‘nikmalarni egalashning muqobil shakllari va usullarini keng joriy etishni talab etadi. Bunda, bolalar iqtidorlarini rivojlantirish usullaridan keng foydalanish, interaktiv metodlar, multimedia kabi yangi pedagogik vositalami dars jarayonida qo‘llash samarali natija beradi.

Demak, matn bilan ishslashning aytib o‘tilgan usullari sifat haqida o‘rganilgan materialni nutqning bir qismi sifatida mustahkamlash, nutqda leksik moslikni buzmasdan sifatlardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish uchun murakkab ishlarni tashkil qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida lisoniy kompetensiyani samarali shakllantirishga yordam beradi. Bulardan tashqari kompetensiya borasida tadqiqot olib borgan olimlarning ishlarini o‘rganish ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lisoniy kompetensiyani shakllantirishda samarali metodlar jamlanmasini tuzishda va undan unumli foydalanishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Almamatov T., Yadgorov Q., Pochchayeva G. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” metodik qo‘llanma. – Jizzax, 2016.
2. Быстрова Е.А. Цели обучения русскому языку, или какую компетенцию мы формируем на уроках// Обучение русскому языку в школе учеб. Пособие для студентов педагогических вузов Е.А.Быстрова, С.И.Лывова, В.И.Капинос, – М. Дрофа, 2004. – С.20-39.
3. Дубова М.В. Дидактические принципы компетентностно ориентированного обучения в начальном общем образовании //Начальное образование. 2012. – №1. – С. 50-51.
4. Irisboyeva X.U. Matnlar tahlili asosida o‘quvchilarda lisoniy kompetensiyani shakllantirish. American journal of social science ISSN: 2996-5306 (online) |ResearchBib (IF) = 9.674 Impact factor. Volume-2| Issue-4| 2024 Published: |30-11-2024| – B. 49-54.
5. Qorayev S.B. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning asosiy jihatlari. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 |ISSUE 1| 2022. – B.1071-1078.